



"OILA VA GENDER" ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/3 (12)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**ZOXIDOV Azamat Azamjonovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмуратов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акmal Xolmatovich** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Dilobar Batirovna** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмуҳамедова Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Зоҳидов Азamat Azamjonovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Азамад Хамидович** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Xасанбой Usmonjon ugли** – доктор психологических наук.

**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Zokhidov Azamat Azamjonovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**

*Rossiya va Markaziy Osiyon*

*o'rganish markazi dotsenti*

*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*

*Javoharlal Neru universiteti,*

*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**

*Chelyabinsk davlat madaniyat*

*instituti,*

*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**

*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*

*London biznes va moliya maktabi,*

*Singapur*

### МЕЖДУНАРОДНАЯ

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**

*Доцент Центра исследований*

*России и Центральной Азии,*

*Школа международных*

*исследований,*

*Университет Джавахарлала Неру,*

*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина**

**Иосифовна,**

*Челябинский государственный*

*институт культуры,*

*доктор педагогических наук,*

*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**

*Руководитель Технологического*

*факультета*

*Лондонская школа бизнеса и*

*финансов, Сингапур*

### INTERNATIONAL EDITORIAL

### BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**

*Assistant Professor*

*Centre for Russian and Central Asian*

*Studies*

*School of International Studies*

*Jawaharlal Nehru University*

*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**

*Chelyabinsk State Institute of Culture*

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**

*Head, School of Technology*

*London School of Business and*

*Finance, Singapore*

*MENEJMENT*

<b>Иноярова С.Р.</b> Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по усовершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи.....	4
--	---

*SOTSILOGIYA*

<b>Butayeva X.Y.</b> Yetim va ota-onा qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari .....	10
<b>Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S.</b> Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari .....	14
<b>Norboyeva S.M.</b> Talabalarda ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari.....	21

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Xatamov B.Q.</b> O‘smirlar ijtimoiylashuvida virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari.....	26
<b>Rahimova M.</b> Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish .....	32
<b>Sadullayev Sh.</b> Ayollarda oila-ish balansi ko‘rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari .....	37

*PSIXOLOGIYA*

<b>Султанова А.А.</b> Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане? .....	44
<b>Ismaylova R.</b> Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari .....	51
<b>Sharapova D.B.</b> ‘Housewife syndrome’ as a psychological problem .....	57
<b>Axmedova D.O.</b> Migrantlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili .....	68
<b>Nurbayeva X.U.</b> Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari .....	74

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHILLAR*

<b>Ochilova B.M.</b> Ta’lim – gender tengligini ta’minlashda kuchli vosita.....	79
<b>Djoldasova S.</b> Ayollarning biznesdagи huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar.....	88
<b>Komilova X.T.</b> Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil.....	96
<b>Suvankulov M.</b> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.....	102
<b>Nurdinova Sh.</b> Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri .....	108
<b>Nurmatova N.U.</b> Vitagen ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish .....	115



**Komilova Xurshida Toxirovna,**  
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti*  
*doktoranti (DSc), dotsent*  
*e-mail: [ilm.hurshida@gmail.com](mailto:ilm.hurshida@gmail.com)*

# **XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATI MAZMUNI VA TAHLIL**

**Annotatsiya.** Maqolada ilm-fanning turli sohalarida xotin-qizlarning ta'lif olishi va ularning ilm-fanga qo'shayotgan hissasi atroficha o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning sotsial qiyofasiga xos xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqot natijalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** ta'lif, ilm, fan, xotin-qizlar, soha, tahlil, savol, ilmiy daraja, ijtimoiylashuv, tadqiqot.

**Аннотация.** В статье рассматривается образование женщин в области науки, их вклад в науку и деятельность в различных областях науки. Также освещены результаты исследования, направленного на определение особенностей социального образа женщин в сфере науки в Узбекистане.

**Ключевые слова:** образование, наука, женщины, сфера, анализ, вопрос, степень, социализация, исследование.

**Annotation.** The article examines the education of women in science, their contribution to science and their activities in various fields of science. The article presents the results of studies aimed at determining the characteristics of the social image of women in the field of science in Uzbekistan as well.

**Keywords:** education, science, women, sphere, analysis, question, degree, socialization, research.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida ilm-fan sohasini rivojlantirish hamda ushbu yo'nalishda xotin-qizlarning ishtirokini rag'batlantirish maqsadida 2019-yilning 29-oktyabr sanasida O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son hamda 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi PF-6108-son Farmonlari,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdag'i "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4433-son qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-mayda "Oliy ta'lifdan kegingi ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori va qator dolzarb hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "hech qachon o'qishdan, izlanishdan to'xtamanglar. Vaqt tez o'tadi, ertaga hayotda munosib o'rinn topishingiz, zamonga mos mutaxassislar bo'lib yetishishingiz uchun bugun o'qishingiz kerak. Men ishonaman, sizlar mutlaqo yangi avlod yoshlari bo'lib ulg'ayasizlar, ota-

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni // <https://lex.uz>

onangiz, el-yurtingiz orzusini ro'yobga chiqarasizlar. Chunki sizlarda bilim bo'ladi. Bilim esa, ko'p bor aytganimdek, o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi. Yakkayu yagona najotimiz – ilm”, – dedi<sup>2</sup>. Jeneva shahrida BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishga barham berish bo'yicha qo'mitasining 45-sessiyasida O'zbekistonda xotin-qizlar turmush farovonligini yanada yuksaltirishda, ular uchun munosib turmush, mehnat, ta'lim sharoitlarini yaratishda ulkan ishlar amalga oshirilgani alohida e'tirof etildi”<sup>3</sup>.

Jamiatning barcha qatlamlari, har qanday xalqning farovonligida ilm-fan va texnologiya ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan harakatlantiruvchi omillardan biridir. Xotin-qizlarning ilm-fandagi roli O'zbekistonning umumiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Maqsad va uni asoslash.** Xotin-qizlarning jamiatdagagi faoliyatining ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik jihatlari yuzasidan O.Nishonova<sup>4</sup> “O'zbek ayollar etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari”, S.Ahrorova<sup>5</sup> “O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari”, M.G'offorova<sup>6</sup> “O'zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlar tendensiyasi bo'yicha tadqiqot ishlari”ni olib borgan bo'lsa, O.Musurmonova<sup>7</sup> “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni shakllantirish, M.Ergasheva “O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishda jamoachilik fikrinining o'rni va roli”<sup>8</sup> bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili asosida aytish mumkinki, mamlakatimizda ham ilm-fan taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqish masalasi tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlar xotin-qizlarning jamiatdagagi faolligi va mavqeyini yuksaltirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham o'z aksini topmoqda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>

<sup>3</sup> Xotin-qizlar manfaati – doimiy himoyada. 12-iyul 2010-yil // O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA) ning veb-sayti: [www.aza.uz](http://www.aza.uz)

<sup>4</sup> Nishonova O. O'zbek ayollar etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari: Falsafa fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2005. – 156 b.

<sup>5</sup> Ahrorova S.A. O'zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nomz...diss. Toshkent: 2005.- 152 b.

<sup>6</sup> G'offorova M.Q. O'zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o'zgarishlar tendensiyasi: sotsiologiya fanlari doktori...diss. avtoref.- Toshkent: 2021.- 62 b.

<sup>7</sup> Musurmanova O. «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» ni shakllantirish.Uslubiy qo'llanma. –Toshkent: 2020. – 62 b.

<sup>8</sup> Ergasheva M.P O'zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishda jamoachilik fikrinining o'rni va ro'li. Avtores. diss...siyosi. fan. bo'y. (PhD). – Toshkent: 2020. -30.

“Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”<sup>9</sup>da “2025-yilga qadar 39 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning umumiyl sonida yuqori malakali ilmiy xodimlarning ulushini 2 baravarga, 2030-yilgacha esa 3 baravarga oshirish ko'zda tutilgan. Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning hayotida ta'lim va ilm-fanning o'rni, ijtimoiylashuviga ta'siri va ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning sotsial qiyofasiga xos xususiyatlarni aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazildi. O'zbekistonda ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan xotin-qizlarning turmush tarzi, ijtimoiylashuv, faoliyati va hayotiy qadriyatlarini o'rganish orqali ularning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash maqsadida tadqiqot amalga oshirildi. Tadqiqotning vazifalari quyidagicha:

1. Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning hayotida ta'lim va ilm-fanning o'rni, ijtimoiylashuviga ta'siri (oilasidagi sotsializatsiyasi jarayonini tadqiq etish).
2. Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning ta'lim olish va ilm-fan bilan shug'ullanishidagi motivlari, kelajakdagi orzu va maqsadlari tizimini aniqlash.
3. Ilm yo'lidagi xotin-qizlarning qadriyatlar tizimida ta'limning o'rni va ahamiyat darajasini aniqlash.
4. Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning faoliyatini davom ettirishidagi to'siqlari va hayotiy muammolarini aniqlash.

5. Ilm yo'lidagi xotin-qizlarning oilaviy holati va o'ziga xos jihatlarini aniqlash.

6. Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlarning sotsial qiyofasiga xos xususiyatlarni aniqlash.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** “2020-yilda jamiatda xotin-qizlarning faolligini yanada oshirish, jumladan, ularning ilmiy faoliyatda samarali ishtiroki yuzasidan shart-sharoitlar yaratilishi natijasida ilmiy darajada tasdiqlanganlar tarkibida ayollarning ulushi DSc bo'yicha 31%, PhD bo'yicha 37%ni<sup>10</sup> tashkil etgan. 2023-yilda esa yaratilayotgan sharoitlar natijasida xotin-qizlar uchun falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasida tasdiqlanganlar tarkibida ayollar 34%ni va fan doktori (DSc) ilmiy darajasida tasdiqlanganlar tarkibida 30%ni<sup>11</sup> tashkil etdi.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-6097-sonli farmoni. // <https://lex.uz>

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi veb-sayti: <https://oak.uz>

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi veb-sayti: <https://oak.uz>

**2019–2022-yillarda ilm-fan tarmoqlari kesimida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi tasdiqlangan xotin-qizlar**

№	Fan tarmog‘i	Jami tasdiqlanganlar	Jumladan, xotin-qizlar				
			Jami	2019-yilda	2020-yilda	2021-yilda	2022-yilda
1	Fizika-matematika	311	46	9	10	12	15
2	Kimyo	262	100	9	21	39	31
3	Biologiya	303	134	25	37	29	43
4	Geologiya-mineralogiya	73	14	4	2	2	6
5	Texnika	1256	233	32	35	65	101
6	Qishloq xo‘jaligi	316	80	19	26	13	22
7	Tarix	358	111	14	17	30	50
8	Iqtisodiyot	720	209	30	22	78	79
9	Falsafa	266	91	15	15	23	38
10	Filologiya	833	561	66	93	160	242
11	Geologiya	76	19	2	8	4	5
12	Yuridik	223	51	3	18	19	11
13	Pedagogika	970	509	63	95	106	245
14	Tibbiyat	937	785	83	94	128	180
15	Farmasevtika	39	28	6	7	8	7
16	Veterinariya	27	3	1	0	1	1
17	San’atshunoslik	43	30	7	5	9	9
18	Arxitektura	22	6	0	4	1	1
19	Psixologiya	115	68	7	13	13	35
20	Sotsiologiya	42	19	1	5	8	5
21	Siyosiy fanlar	88	21	2	6	6	7
22	Islomshunoslik	19	3	0	0	1	2
	Jami	7299	2821	398	533	755	1135

**2019–2022-yillarda ilm-fan tarmoqlari kesimida fan doktori (DSc) ilmiy darajasi tasdiqlangan xotin-qizlar**

№	Fan tarmog‘i	Jami tasdiqlanganlar	Jumladan, xotin-qizlar				
			Jami	2019-yilda	2020-yilda	2021-yilda	2022-yilda
1	Fizika-matematika	100	5	1	1	0	3
2	Kimyo	61	13	2	5	3	3
3	Biologiya	62	19	6	5	6	2
4	Geologiya-mineralogiya	23	2	0	0	2	0
5	Texnika	220	36	12	7	11	6
6	Qishloq xo‘jaligi	66	5	2	2	0	1
7	Tarix	53	16	2	4	4	6
8	Iqtisodiyot	117	21	3	7	8	3
9	Falsafa	41	17	3	2	5	7
10	Filologiya	163	94	14	16	28	36
11	Geologiya	16	2	0	1	0	1
12	Yuridik	72	18	4	7	2	5
13	Pedagogik	98	55	7	9	12	27
14	Tibbiyat	243	116	31	23	33	29
15	Farmasevtika	16	14	1	5	3	5
16	Veterinariya	2	0	0	0	0	0
17	San’atshunoslik	2	1	1	0	0	0
18	Arxitektura	4	1	1	0	0	0
19	Psixologiya	34	23	2	1	2	18

20	Sotsiologiya	10	5	0	3	1	1
21	Siyosiy fanlar	15	1	0	0	1	0
22	Islomshunoslik	1	0	0	0	0	0
	Jami	1419	464	92	98	121	153

Amalga oshirilayotgan islohotlar va taqdim etilayotgan imtiyozlar, o‘z navbatida, xotin-qizlarning ta’lim olishga, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ishtiyoq va maqsadining yanada oshishiga xizmat qilmoqda. Yana bir muhim holat – O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilingani ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi islohotlarning jadal tus olishi va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish borasida erishilayotgan amaliy yutuqlar xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga yanada keng jalb etishga yana bir asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugun kunda mamlakatimiz tadqiqotchilari axborot texnologiyalari, kimyo, biotexnologiya va qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda faol izlanmoqdalar. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va gumanitar sohalar rivojida xotin-qizlarimizning ishtiroki salmoqli o‘rin tutmoqda.

Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, xotin-qizlar erkaklarga qaraganda bazi (texnika, texnologiya, muhandislik) ilmiy sohalarda faoliyat olib borishlarida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ya’ni aniq va texnika fanlarida ayollarga qaraganda erkaklar ko‘pchilikni tashkil qilmoqda. Bunda bularning barchasi xotin-qizlarning qobiliyati bilan bog‘liq deb talqin qilish noto‘g‘ri. Zero, bular madaniy an’ana, oila va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Ushbu fanlar sohasidagi gender tenglikka erishish maqsadida xotin-qizlarning namunaviy roli modellarini belgilaydigan, stereotiplardan xoli STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohasida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash lozim.


O‘zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati va ijtimoiylashuv jarayoni bo‘yicha tadqiqotga 1634 nafar xotin-qiz jalb qilinib, ularning fikrlari anketa-so‘rovnomaga orqali o‘rganildi.

“Siz tug‘ilib o‘sigan oilada xotin-qizlarning ta’lim olishi (olima bo‘lishi)ga qanday e’tibor qaratilgan?” savoliga ishtirokchilarning 75,2 foizi tug‘ilib o‘sigan oilada xotin-qizlarning ta’lim olishi (olima bo‘lishi) doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlanganligini qayd etishgan bo‘lsa, 17,7 foizi ko‘p hollarda qo‘llab-quvvatlangan, 4,6 foizi kamroq qo‘llab-quvvatlanganini ma’lum qilgan. Xotin-qizlarning ta’lim olishi va ilmlli bo‘lishida oila

a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘rovlardan xotin-qizlarning oila a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi sababli ularning ilmiy yutuqlarga erishishi va ilmiy faoliyat olib borishiga yordam bermoqda, degan xulosaga keladik. “Sizga ilmiy yutuqlarga erishishingizda va ilmiy faoliyat olib borishingizda kim yordam bergen?” degan savolga respondentlarning 24 foizi – onam, 21 foizi – otam, 16,9 foizi – ustozim, 15,6 foizi – turmush o‘rtog‘im, 9 foizi – oilam, deb javob bergen bo‘lsa, qolgan 4,8 foizi – hamkasblarim, 3,3 foizi – do‘stlarim, 3 foizi – ishdagi rahbarlarim, deya javob berishgan.


Sizga ilmiy yutuqlarga erishishingizda va ilmiy faoliyat olib borishingizda kim yordam bergen? %da



### 1-rasm

Shuningdek, respondentlardan aynan, ilmfandagi faoliyati tufayli oilaviy hayotda bolalarga qarash masalasida qiyinchiliklar – 33,3%, oiladagi tushunmovchiliklar – 20,2%, erining rashk qilishi – 11%, qaynona qarshiligi – 3,8% bo‘lsa, respondentlardan 22,6 foizi qiyinchiliklarga duch kelmaganini takidlashgan.

Ilm-fandagi faoliyatning tufayli oilaviy hayotingizda qanday qiyinchiliklarga duch kelgansiz? %da



### 2-rasm

Respondentlarning javoblari shuni ko‘rsatdiki, xotin-qizlarning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishida 29,9% to‘siqlarga uchramagani aniqlandi. Bu ijobiy

ko'rsatkich, lekin respondentlarning 19,2% mablag' yetishmagani, 18,1% farzandlarga ko'p vaqt ajratish lozimligi, 9,5% javob berolmagan, 6,9% alohida uy-joyga ega emasligi, 6,4% turmush o'rtog'i qarshi chiqqanligi, 3,7% boshqa sabablar, 4,8% qaynona-qaynотa qarshiligi, 1,5% korrupsiyaga duch kelganligi ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishida to'siq bo'lgani aniqlandi.



### 3-rasm

Davlat tomonidan xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida jamiyatimizda xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faolligi oshib bormoqda.

Quvonarlisi shundaki, tadqiqotda ishtirok etgan xotin-qizlarnung 22 foizi yosh oilalar uchun imtiyozli kreditlar, 19,6%i foizsiz ta'lif kreditlari, 10,8%i stipendiyalar, 9,6%i homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanishi, 8,4%i ta'lif muassasalariga ajratilgan qo'shimcha davlat grantlari, 8,2%i 54 yoshda pensiyaga chiqish, 8%i magistraturada kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz o'qishi, 7,6%i imtiyozli ipoteka kreditlari, 3,6%i tibbiy-ijtimoiy xizmatlar, 1,4%i moddiy yordam kabi davlat tomonidan ko'rsatilayotgan imtiyozlardan xabardor ekanligi kuzatilmoxda. Ilm-fanni chuqur o'rganishga undaydigan, tadqiqotchilik, oiladagi onalik kabi mas'uliyatini birday uddalaydigan, mehnati va ilmiy salohiyati bilan namuna bo'layotgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash darkor. Zero, xotin-qizlar, olimalarni ilm-fan sohalaridagi yutuqlarini e'tirof etish va targ'ib qilib borish global dunyo kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyatini rivojlantirishda quyidagi ishlarga ahamiyat qaratish lozim:

- O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyatini keng targ'ib qilish va elita olma ayollar yoshlarning ideali va ustoz sifatida namuna bo'lishi;

- iqtidorli xotin-qizlarning yetakchi olimlar bilan o'zaro hamkorligi, ilmiy tadqiqot ishlarini yuritish uchun zamonaviy tizimni ishlab chiqish va ilm-fan sohalarida yosh xotin-qizlar iborat kadrlarni tayyorlash tizimi uzuksiz davom ettirishi;

- xotin-qizlarning ta'lif olishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning rolini yanada oshirishi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyatining rivoji xotin-qizlar, olimalarni ilm-fan sohalaridagi yutuqlarini o'rganish va ilmiy-kasbiy rivojlanishga qaratilgan seminarlar, xotin-qizlarning yuqori lavozimlarda faoliyatini davom ettirishlarida gender tengligiga erishish, ota-onas, homilador ayol yoki bola parvalishayotgan xotin-qizlarni ish joylarida ilmiy faoliyatini davom ettirishini qo'llab-quvvatlash. Imtiyozlar, moslashuvchan ish vaqt, xotin-qizlar tomonidan STEM fanlarining o'zlashtirilishini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarni ilm-fan sohalariga qiziqtirish, ishonch va boshqa omillar ta'siri ostida rivojlanish. Shu bilan birga, bu olima xotin-qizlarning jamiyatdagi maqomi oshishiga, ilm-fan rivoji oila, jamiyat va O'zbekistonning rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Demak, xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi jamiyatning madaniyatlilik darajasini belgilab, mamlakat barqaror rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

**Yakuniy qism.** Yurtimizda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyatining tahlili asosida quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlash lozim:

- jamiyatning barcha qatlamlari, har qanday xalqning farovonligida ilm-fan va texnologiya ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan harakatlantiruvchi omillardan birdir, shuning uchun milliy va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Oliy ta'lifdan kegingi ta'lif tizimiga oid qonun hujjalarni yanada takomillashtirish;

- ilm-fan sohalarini takomillashtirishda xotin-qizlar ulishini kengaytirish, ularning imiy faoliyat olib borishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar va chora-tadbirlarni kiritish;

- xotin-qizlar tomonidan ilm-fan sohalarining chuqur o'rganilishi uchun xalqaro miqyosidagi o'quv adabiyotlar, axborot resurslardan keng foydalanish imkoniyatlarini ko'paytirish hamda ilmiy faoliyatiga ko'maklashishga doir yangi avlod darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarni takomillashtirish;

O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyatini yanada rivojlanish samarali mexanizmlardan yana birdir. Oliy ta'lifdan kegingi ta'lif tizimida, STEM fanlari va xotin-qizlarning ilm-fandagi sohalaridagi tadqiqot olib borishlarida talab va takliflarni muvofiqlashtirish, ehtiyojni inobatga olgan holda mutaxassislarni tayyorlash O'zbekistonda xotin-qizlarning ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati yanada rivojlanish

imkoniyati yaratadi. Zero, Mamlakatimiz xotin-qizlarining ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos ijtimoiy xususiyatlari va istiqbollarini hisobga olgan holda Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor

vazifalardan biri – xotin-qizlarni ilm-fanga jalb qilish, xotin-qizlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish, jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish hamda barqaror rivojlanishga erishish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘XATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni // <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son Farmoni // <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz>
4. **O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi** veb-sayti: <https://oak.uz>
5. Ahrorova S.A. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Fals. fan. nomz...diss. – Toshkent: 2005. – 152 b.
6. Ergasheva M.P. O‘zbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishda jamoachilik fikrinining o‘rni va roli. Avtores. diss...siyosiy. fan. fals. dokt. (PhD). – Toshkent, 2020. – 30 b.
7. G‘offorova M.Q. O‘zbekiston xotin-qizlar sotsiomadaniy qiyofasidagi o‘zgarishlar tendensiyasi: sotsiologiya fanlari doktori...diss. avtores. – Toshkent, 2021. – 62 b.
8. Musurmanova O. “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni shakllantirish: Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 62 b.
9. Nishonova O. O‘zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari: Falsafa fan, nomzodi. ...diss. – Toshkent, 2005. – 156 b.
10. Xotin-qizlar manfaati – doimiy himoyada. 12-iyul 2010-yil // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA) ning veb-sayti: [www.uza.uz](http://www.uza.uz)

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.,**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

